

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

AZIZOVA NIGORA BOBIR QIZI

**XX ASR BOSHLARIDA TURK SHE'RIYATINING YANGILANISH
TAMOYILLARI
(Ziyo Go'kalp, Yahyo Kamol, Ahmad Hoshim ijodi misolida)**

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

UO‘K: 821.512.161:82-2
BBK:83:84-5(5 Turk)
A-99

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Azizova Nigora Bobir qizi

XX asr boshlarida turk she‘riyatining yangilanish tamoyillari (Ziyo Go‘kalp, Yahyo Kamol, Ahmad Hoshim ijodi misolida) 5

Azizova Nigora Bobir qizi

Principles of renewal of Turkish poetry at the beginning of the 20th century (on the example of the work of Ziyò Gokalp, Yakhya Kemal and Ahmet Khashim) 25

Азизова Нигора Бобир кизи

Принципы обновления турецкой поэзии в начале XX века (на примере творчества Зиё Гёкальпа, Яхьи Кемаля и Ахмеда Хашима) 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ 51

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

AZIZOVA NIGORA BOBIR QIZI

XX ASR BOSHLARIDA TURK SHE'RIYATINING YANGILANISH
TAMOYILLARI
(Ziyo Go'kalp, Yahyo Kamol, Ahmad Hoshim ijodi misolida)

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3417 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuos.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Kenjayeva Poshshajon Umidovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Xodjayeva Ra’no Umarovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Hamdamov Ulug‘bek Abduvahobovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100060, Toshkent, Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent, Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.M. Mannonov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

N.R. Ismatullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.fan.b.fals.d. (PhD), dotsent

J.T. Ziyamuxamedov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ijtimoiy sohadagi taraqqiyotning sur'ati tezlashib, adabiyotda ham yangicha qarashni taqozo etdi. Shu tariqa adabiyotda modernizmning ilk kurtaklari keng quloch yozib, jahon adabiyotida uning dastlabki namunalari yaratildi. Keyinchalik, zamonaviy she'riyatga xos xususiyatlar Sharq xalqlari adabiyotida ham kuzatildi. Shuning uchun ham ba'zi shoirlar hayotni badiiy aks ettirishning yangicha yo'llarini izlay boshladilar. Xususan, bu jarayon she'riyatga sezilarli ta'sir o'tkazib, yangi she'riyatning shakl va mazmunidagi rang-baranglik, badiiy-estetik va ruhiy uyg'onish tamoyillarining she'riyatdagi talqini, sof lirik pafosning badiiy aks etishi, lirik uslubda novatorlikka xos xususiyatlar singari masalalar ijodkorlar ongida shakllandi. Bu kabi yangilanishlarni turk she'riyati misolida tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida zamonaviy she'riyatning asl qiyofasini belgilovchi omil "zamonaviylashish" hodisasi bo'lib, turk adabiyotida uning ilk ko'rinishlari Tanzimot davri bilan xarakterlanadi. Bu davrda aksariyat ijodkorlar G'arb adabiyoti ta'sirida shakllandi, natijada taqlidiy asarlar soni ko'paydi. Shu jumladan, zamonaviy turk she'riyatining rivojlanish va yangilanish tamoyillari "Sarvat-i Funun", "Fejri Oti", "Milliy adabiyot" va "Jumhuriyat adabiyoti" da bosqichma-bosqich taraqqiy etib bordi. Bu davrlar mobaynida, she'riy asarlarning shakl va mazmuni turli xil o'zgarishlarga yuz tutdi. Aksariyat turk shoirlari fransuz ijodkorlarining asarlaridan ilhomlanib yangicha uslubda qalam tebratdilar.

Respublikamizda olib borilayotgan ilmiy-nazariy izlanishlar asosida bizning tadqiqotimiz ham "Milliy adabiyot" va "Jumhuriyat davri adabiyoti"ning dastlabki yillarida ijod qilgan turk she'riyatining yorqin namoyandalari Z.Go'kalp, Y.Kamol va A.Hoshim ijodi misolida yangi turk she'riyatining yangilanishi, takomillashishi, undagi an'ana va novatorlikning uyg'unligi tadqiq etilgan. Mazkur dissertatsiya turk she'riyatining jahon she'riyati bilan sintezlashuv jarayoni va yangi she'riyatdagi poetik tasvirning yangilanish tamoyillari, "milliy she'r"dagi ma'rifatparvarlik g'oyalarining talqini va uning millat qalbiga singdirilishi, shuningdek, "sof she'r" yo'lidagi izlanishlar singari masalalar tadqiqiga bag'ishlangan. Binobarin, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotdagi ta'sirchanligini yanada oshirishga qaratilgan dasturlar qabul qilinishi kerakligi ta'kidlangan¹. Shu jihatdan qaralganda XX asr boshlarida takomillashib borgan turk she'riyatining yangilanish tamoyillarini monografik planda o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli, "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2023. – B. 252.

2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-sonli hamda “Mamlakatimizda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining birinchi “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Jahon² va rus³ adabiyotshunosligida zamonaviy turk she‘riyatiga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ulardan, L.O.Alkayeva, R.G.Fish, A.A.Babayev va T.D.Melikov yangi turk she‘riyatining rivojini turk shoiri N.Hikmat she‘riyati misolida tadqiq qilishgan. Z.A.Ashimovning tadqiqotida zamonaviy she‘riyatning rivojiga hissa qo‘shgan “Hijoning besh shoiri” nomdagi adabiy harakatning ijodiy faoliyati kuzatilgan bo‘lsa, T.D.Melikovning “XX asrning 60-yillarida turk she‘riyati” nomli nomzodlik dissertatsiyasida 60-yillar turk she‘riyatining o‘ziga xos xususiyatlari va shu davrning ayrim turk shoirlari ijodi o‘rganilgan. Mazkur muallifning doktorlik tadqiqotida yangi turk she‘riyatining shakllanishi va uning omillari umumiy tadqiq etilgan.

Turk adabiyotida ham zamonaviy she‘riyatga oid qator masalalar o‘rganilgan bo‘lib⁴, ularda she‘riyatga xos xususiyatlar alohida davrlarga ajratilgan holda, ya‘ni Tanzimot, Sarvat-

² Aka P. Au carrefour des influences: Yahya Kemal et la modernité de la poésie turque: Littératures. Thèse de doctorat Université. – Paris, 2013. – 327 p. (<https://theses.hal.science/tel-00951241v1/file/th2013PEST0002.pdf>); Bekcioglu B. The experience of modernity and Turkish poetry. Connect to resource. – Ohio, 1998. – 88 p. (<http://rave.ohiolink.edu/etdc/view?acc%5Fnum=osu1186699644>); Mignon L. The beloved unveiled: continuity and change in modern Turkish love poetry (1923-1980). Thesis, SOAS, – London, 2002. – 243 p. <http://eprints.soas.ac.uk/29550/>

Алькаева. Л. О. Очерки по истории турецкой литературы, 1908-1939 гг. – Москва: Академии наук СССР, 1959. ³ – 220 с. Алькаева Л.О, А.Бабаев. Турецкая литература. – Москва: Наука, 1967. – 189 с.; Кямилев Х. У истоков современной турецкой литературы. – Москва: Наука, 1967. – 132 с.; Кямилев Х. Развитие общественных мотивов в турецкой поэзии (вторая половина XIX в., первая половина XX в.): Автореф. дис. на соискание уч. ст. доктора филол. наук. – Москва, 1970. – 55 с.; Фиш Р.Г. Назым Хикмет. Очерки жизни и творчества. – Москва, 1960. – 387 с.; Фиш Р.Г. Назым Хикмет. – Москва: молодая гвардия, 1968. – 328 с.; Чорекчян Х.А. Некоторые тенденции в современной турецкой поэзии. 1964, - 155 с.; Гарбузова В.С. Поэты Турции XIX века. – Ленинград: ЛГУ, 1970. – 115 с.; Гарбузова В.С. Поэты Турции первой четверти XX века. – Ленинград: ЛГУ, 1970. – 72 с.; Бабаев А.А. Назым Хикмет. Жизнь и творчество. – Москва: Наука, 1975. – 380 с.; Бабаев А.А. Очерки современной турецкой литературы. – Москва: АН СССР, Ин-т востоковедения, 1959. – 242 с.; Ашимов З.А. Зарождение национального направления в турецкой поэзии в первой четверти XX века (поэзия хаджеистов). дис. ... канд. филол. наук. – Баку, 1983. – 194 с.; Меликов Т.Д. Турецкая поэзия 60-х годов XX века. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 196 – 116 с.; Меликов Т.Д., Ибрагимова А. Из современной турецкой поэзии. – Москва: Прогресс, 1975. – 308 с.; Меликов Т.Д. Турецкая поэзия 60-х - начала 70-х годов. – Москва: Наука, 1980. – 116 с.; Меликов Т.Д. Из турецкой поэзии XX века. – Москва: Художественная литература, 1979. – 411 с.; Меликов Т. Назым Хикмет и новая поэзия Турции. – Москва: Наука, 1987. – 200 с.; Меликов Т.Д. Новая поэзия Турции: становление и развитие. Автореф. дис. на соискание уч. ст. доктора филол. наук. – Баку, 1993. – 47 с.; Гениш Э. Турецкая литература: Биографии самых известных поэтов и писателей, направления их творчества и примеры произведений. – Москва: ЛКИ, 2014. – 462 с.; Мухамметдинов Р.Ф. Юсуф Акчура и Зия Гекалп: формирование идеологии тюркизма (70-е г.г. XIX в. 30-е г.г. XX в.): Дис. на соискание уч. ст. к.ф.н., – Казань, 1996. – 150 с. Утургаури С.Н. Турецкая поэзия 60-70-х годов. – Москва: Наука, 1982. – 216 с.; Бомбачи А. Тюркские литературы. Введение в историю и стиль. – Москва: Тюркология, 1986. – 384 с.; Линин А.Н. К вопросу формального изучения поэзии турецких народов. – Баку: АГУ, 1926. – 193 с.

⁴ Akyüz K. Türk Şiiri Antolojisi (1860-1923). İnkılap Kitabevi. – İstanbul, 1995. – 1032 s.; Kabaklı A. Türk Edebiyatı III. Türk Edebiyatı Vakfı Yayınları. – İstanbul, 2002. – 848 s.; Şen C. Fecr-i Ati Encümen-i Edebisi (1909-1912). Doktora

i Funun, Fejr-i Oti, Milliy adabiyot va Jumhuriyat davri she'riyati kabi mavzular doirasida tadqiq qilingan. Biroq, turk she'riyatining yangilanish jarayoni Ziyo Go'kalp, Yahyo Kamol va Ahmad Hoshim ijodi misolida alohida monografik yo'sinda o'rganilmagan.

Mustaqillikdan keyin o'zbek adabiyotshunosligida yangi o'zbek she'riyatining takomillashuv bosqichlari va rivojlanishi xususida bir qator tadqiqotlar olib borilgan⁵, biroq zamonaviy turk she'riyatining shakllanishi va yangilanishi haqida alohida monografik tadqiqotlar kuzatilmaydi. Faqat turk adabiyotining milliy shoiri M.A.Erso'y va jadid she'riyatining yorqin namoyandasi A.Fitrat ijodi X.Boltaboyeva tomonidan qiyosiy aspektda o'rganilgan⁶.

Izlanishlarimiz natijasiga ko'ra, jahon va rus adabiyotshunosligida ham XX asr boshlaridagi turk she'riyatining yangilanish tamoyillari Z.Go'kalp, Y.Kamol va A.Hoshim ijodi misolida maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Shoislom Shomammedov nomidagi "Adabiyotshunoslar ilmiy markazi"ning ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liq holda amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi XX asr boshlarida turk she'riyatining yangilanish tamoyillari, uning vujudga kelish jarayoni va shakllanish omillarini hamda "milliy she'r" va "sof she'r"ga xos xususiyatlarni Ziyo Go'kalp, Yahyo Kamol va Ahmad Hoshim ijodi misolida ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XX asr boshlarida "milliy she'r"ning vujudga kelish jarayoni, uning omillari, taraqqiyot bosqichlari va yangilanish tamoyillarini ilmiy jihatdan asoslash;

Ziyo Go'kalpning milliy uyg'onish, ma'rifat va hurriyatga yo'g'rilgan she'rlarini tahlil qilish orqali "milliy she'r"ga xos xususiyatlarni ochib berish;

Yahyo Kamol ijodida an'ana va novatorlikning uyg'unligini hamda G'arb va mumtoz she'r an'analari sintezlashuv jarayonini yoritib berish;

tezi. – Ankara, 2004. – 1852 s.; Armağan Y. Türk Şiirinde Modernizm. Doktora tezi. – Ankara, 2007. – 213 s.; Ürkmez H. "Beş Hececiler" in Şiir Anlayışları ve Şiirleri Üzerine Bir Araştırma. Doktora tezi. – Ankara, 2009. – 536 s.; Can A. Cumhuriyet Devri Türk Şiiri Poetikası (1923-1940). Doktora tezi. – Erzurum, 2010. – 393 s.; Doğaner V. Tanzimat Devri Türk Şiir Poetikası. Doktora tezi. – Elazığ, 2015. – 260 s.; Baran E. Milli Edebiyat Dönemini Besleyen Türkçülüğün Kaynakları. Doktora tezi. – Ankara, 2019. – 518 s.; Yıldırım F. Milli Edebiyat Döneminde Ulusal Bilincin İnşası. Doktora tezi. – Elazığ, 2019. – 582 s.; Gaprindashvili M. XX. Yüzyılda Modernizmin Türk ve Gürcü Poetikasındaki Etkileri. Doktora tezi. – Ankara, 2022. – 201 s.; Ünlü B. Tanzimat'tan Cumhuriyet'e Türk Şiirinde Bahçe Metaforu. Doktora tezi. – Elazığ, 2023. – 193 s.; Zengin Ç. 1901-1912 Yılları Arasında Türk Edebiyatında Eski-Yeni Tartışmaları. Doktora tezi. – Giresun, – 2024. – 203 s.

⁵ Жалолов А. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг ривожланиш жараёни (XIX аср охири ва XX аср бошлари): Филол.фан.докт...дисс. – Тошкент, 1994. – 225 б.; Ҳамдамов У. 30-йиллар ўзбек шеърлятида «соф лирика» муаммоси: Филол.фан.номз... дис... автореф. – Тошкент: 1997. – 250 б.; Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеърлятида психологик тасвир маҳорати: Филол.фан.докт... дисс... автореф. – Тошкент: 1999. – 334 б.; Холикова Н. Миллий уйғониш даври ўзбек шеърлятида озодлик ҳаракатининг бадий талқини (1916 йил воқеаларини акс эттирувчи асарлар мисолида): Филол.фан.номз... дисс. – Тошкент, 2009. – 148 б.; Афоқова Н. Ўзбек жаҳид адабиётда шеърлий шакллар тараққиёти тамойиллари: Филол.фан.докт...дисс. – Тошкент, 2005. – 281 б.; Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърляти бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Филол.фан.докт...дисс. – Тошкент., 2017. – 259 б.; Тожибоева М. Жаҳид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари: Филол.фан.докт...дисс. – Тошкент., 2017. – 283 б.; Назарова Ш. XX аср бошлари ўзбек шеърлятининг янгиланиш тамойиллари (янги ўзбек шеърляти контекстида): Филол.фан.докт...дисс. – Тошкент, 2022. – 238 б.

⁶ Boltaboyeva H. Mehmet Akif Erso'y va Fitrat asarlarida ma'rifatchilik g'oyalarining badiiy talqini: Filol.fan.nomz... (PhD) diss. – Toshkent, 2023. – 133 b.

Jumhuriyat adabiyotining boshlarida “sof she’r”ga xos tamoyillarning ildizi va she’riy vaznlarni davrning yirik shoirlari ijodi misolida aniqlash;

Ahmad Hoshim she’rlarida kuzatilgan shakliy izlanishlar va simbolizmning ko’rinishlarini tahlil qilish orqali “sof she’r”ning asl xususiyatini ochib berish.

Tadqiqotning obyektini sifatida XX asr boshlarida ijod qilgan turk shoirlari, xususan, Ziyó Go’kalpning “Yeni Hayat” (“Yangi hayot”), “Ziya Gokalp Külliyyati” (“Ziyó Go’kalpning barcha asarlari”), Yahyo Kamolning “Kendi Gök Kubbemiz”, (“Bizning osmon”), “Eski Şiirin Rüzgarıyla” (“Mumtoz she’rlar shabadasidan”), Ahmad Hoshimning “Bütün Şiirleri” (“Barcha she’rlari”) va “Güzel Yazılar: Şiirler” (“Mukammal asarlar: She’rlar”) kabi to’plamlardagi she’rlar saralab olindi.

Tadqiqot predmetini yangi turk she’riyatining shakllanishi va tadrijiy takomili, xususan, Ziyó Go’kalp, Yahyo Kamol va Ahmad Hoshim she’rlari misolida turk she’riyatining yangilanish tamoyillari masalasini o’rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqotning metodologiyasini adabiyotshunoslikdagi tarixiy-biografik, adabiy-estetik, struktural-semantik va psixologik tahlil metodlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

XX asr boshlarida “milliy she’r”ning vujudga kelish omillari, bosqichlari va yangilanish tamoyillari zamonaviy turk adabiyotida yangilanib borayotgan har bir davrga xos adabiy jarayonlar misolida asoslangan;

Ziyó Go’kalpning “Turkchilik” g’oyalariga yo’g’rilgan ma’rifatparvarlik ruhdagi hamda milliy uyg’onish va hurriyat mavzusidagi “milliy she’r”lari, zamonaviy turk she’riyatida barmoq vaznining keng yoyilishiga qo’shgan hissasi she’riy tahlillar asosida dalillangan;

Milliy adabiyot davri turk she’riyatida an’ana va novatorlik masalalari, G’arb hamda mumtoz she’r an’analarining “milliy she’r”da namoyon bo’lishi, she’riy janrlardagi shakl va mazmun mutanosibligi, “derûnî ahenk” tushunchasining she’riyatga targ’ib qilinishi Yahyo Kamol ijodi misolida yoritilgan;

Jumhuriyat adabiyotining ilk yillarida “sof she’r”ga xos xususiyatlar, undagi yangilanish tamoyillar hamda she’riy vazndagi sifat o’zgarishlar N.F.Kisakurak, A.H.Tanpınar, A.K.Tejer, A.H.Chalabiy singari davrning faol shoirlari va “Yangi hijojilar” (“Yeni Hececiler”), “Yetti mash’alachilar” (“Yedi Meşaleciler”) kabi adabiy harakatlarning ijodi orqali aniqlangan;

Ahmad Hoshimning “sof she’r” yaratish yo’lidagi ijodiy tajribalari, xususan, fransuz simbolistlari, Sh.G’olib va turk xalq og’zaki ijodi ta’sirida yaratilgan hissiy va ruhiy kechinmaga to’la she’riy asarlarini tahlil etish asnosida “sof she’r”ga xos xususiyatlar ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

zamonaviy turk adabiyotida “milliy she’r”ning takomillashuv jarayoni XX asr boshlarida kuzatilgani va uning ildizlari an’anaviy hamda G’arb she’riyati ta’sirida yuzaga kelgani dalillangan;

“Turkchilik” adabiy harakatining asoschilaridan biri Ziyó Go’kalpning ijodi “milliy she’r”ning g’oyaviy-badiiy xususiyati va mazmun-mohiyatiga kuchli ta’sir ko’rsatgani uning she’rlari misolida isbotlangan;

Yahyo Kamol ijodida mumtoz she'r an'analari va G'arb she'riyatining ta'siri yaqqol aks etgani, uning ichki kechinmalari she'rlari tahlilida asoslangan;

Jumhuriyat yillarida "sof she'r" yo'lida ijod qilgan shoirlar va adabiy harakatlarning faoliyati, shuningdek, barmoq vaznining ahamiyati tahlil qilingan;

Ahmad Hoshim ijodidagi shakliy izlanishlar va simbolizmga xos xususiyatlarning "sof she'r" asosiga singib ketgani, uning keyingi avlod shoirlari ijodiga ta'siri tadqiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammolarning ilmiy va badiiy manbalardan olingan metodlar, yondoshuvlar va ma'lumotlardan foydalanishda, turk shoirlarining she'riy asarlarini adabiy-estetik, tarixiy-madaniy va ijodiy-genetik metodlar vositasida tahlil qilinganligi, tadqiqot natijasidagi xulosa hamda takliflar amaliyotga tatbiq etilgani, tadqiqot natijalarining xorijiy va respublika jurnallarida e'lon qilingan ilmiy maqolalar va tegishli tashkilotlardan olingan dalolatnomalar bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. XX asr boshlaridagi yangi she'riyatning shakllanishi Tanzimot, Sarvat-i Funun, Fejr-i Oti, Milliy adabiyot singari davrlar bilan bevosita bog'liq. Tadqiqotda bu davrlar she'riyati umumlashtirilib, bosqichma-bosqich tavsiflab berildi. Ziyo Go'kalp, Yahyo Kamol va Ahmad Hoshim she'rlari misolida yangi she'riyatga xos alohida belgilar tahlil qilindi, bu tadqiqotning ilmiy ahamiyatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati turk shoirlarining yangilanish g'oyalariga yo'g'rilgan she'rlarining tahlilini amalga oshirish bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalaridan turk adabiyoti bo'yicha maxsus kurs va seminarlar olib borishda hamda she'riy asar tahliliga doir amaliy mashg'ulotlarda qo'shimcha manba sifatida, oliy ta'lim muassasalari, litseylarda turk tilini o'rganishda va sharqshunoslik sohasidagi talabalar va magistrilar uchun "Tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti (turk)", "Sharq xalqlari adabiyotida she'riy tizimlar", "Mutaxassislikning nazariy masalalari", "Sharq xalqlari adabiyoti poetikasi" kabi fanlar bo'yicha ma'ruzalar o'qishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot bo'yicha olingan natijalar zamonaviy turk she'riyatining Tanzimotdan Jumhuriyat davrigacha bo'lgan rivojlanishiga oid xulosalardan "Turk adabiyoti" (3-qism) darsligining 3-bobini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni Rivojlantiruvchi markazining 2025-yil 23-sentabrdagi 02/01-01-370-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarga zamonaviy turk she'riyati, xususan, Tanzimot, Sarvat-i Funun, Fejri Oti va Milliy adabiyot davri she'riyati haqida keng ko'lamdagi ma'lumotlarni yetkazib, bakalavr bosqichidagi talabalarning bilim darajalarini oshirishga nazariy va amaliy yordam bergan;

Yangi turk she'riyatining vujudga kelish omillari, she'riyatning yangilanish tamoyillari Ziyo Go'kalp, Yahyo Kamol va Ahmad Hoshim ijodi misolida tadqiq qilishga bag'ishlangan talqin va nazariy xulosalaridan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "Mahalla" teleradiokanali DM "Mahalla" radiosi dasturlaridagi "Adabiyot gulshani" nomli eshittirishini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" teleradiokanali DMning 2022-yil 21-yanvardagi 04-122-son ma'lumotnomasi). Natijada, XX asr boshlari turk

she'riyati va davrning faol shoirlari ijodini yoritishda Ziyó Go'kalp, Yahyo Kamol va Ahmad Hoshim ijodi bilan o'zbek radiotinglovchilarini tanishtirish ta'minlangan;

Tadqiqot natijalari Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2023-yil 11-iyundagi 26-IB qarori bilan tashkillashtirilgan "Adabiyotshunoslik terminlar lug'ati (turk adabiyoti)" amaliy loyihasida dissertatsiyaning nazariy masalalari va she'riyat bilan bog'liq ilmiy asoslari lug'at terminlari sifatida qo'llanilgan (Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2025-yilning 11-noyabrdagi 01-04-02/2954-sonli ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalariga tayangan holda yangi turk she'riyatining shakllanishi va taraqqiy etishiga bevosita hissa qo'shgan adabiy harakatlar, she'r tizimlari va lirik janrlar lug'atdan joy olgan;

XX asr boshlaridagi turk she'riyatining shakllanish bosqichlari va yangilanish tamoyillari tadqiqi bo'yicha olingan natijalar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining "Badiiy tarjima ijodiy kengashi" hisobot yig'ilishlarida hamda uyushma tomonidan tashkil qilingan an'anaviy respublika tarjimonlar forumida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 31-oktabrdagi 01/03/355-son ma'lumotnomasi). Natijada, yangi turk she'riyati namunalarining o'zbek tiliga tarjima qilish amaliyotida Ziyó Go'kalp, Yahyo Kamol va Ahmad Hoshim singari shoirlarning she'rlari yangicha yondoshuvlarning shakllanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari muallifning 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi konferensiyalardagi chiqishlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy maqola chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 7 ta, jumladan, 5 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Zamonaviy turk adabiyotida "milliy she'r"ning shakllanishi va tadrijiy takomili**" nomli birinchi bobi ikki fasldan tashkil topgan. Bobning birinchi fasli – "*Zamonaviy adabiyotda "milliy she'r"ning vujudga kelish jarayoni va uning omillari*" deb atalib, faslda "milliy she'r"ning vujudga kelish jarayoni va omillari xususida fikr yuritiladi.

XIX asr turk adabiy jarayonining yangilanishida uchta muhim siyosiy voqea omil bo'lgan. Bu voqealar - 1839-yilda Tanzimot farmonining qabul qilinishi va uning

ijtimoiy-siyosiy natijalarining madaniyatga ta'siri, 1876-yilda Abdulhamid IIning taxtga chiqishi hamda 1896-yilda "Sarvat-i Funun" jurnali muharrirligiga Tovfiq Fikratning kelishi edi.

1839-yilning 3-noyabrida mashhur Gulxonada "Xatti Humoyun"ning e'lon qilinishi Turkiya tarixida "Tanzimot" deb atalgan davrni boshlab berdi⁷. Bu davrdagi adabiy jarayonlar XX asr boshlarida vujudga kelgan "Milliy adabiyot"ning shakllanishiga tamaltoshi bo'lgan. Tanzimotning I.Shinosiy, Z.Posho va N.Kamol kabi yirik namoyandalari xalq tilini adabiy tilga yaqinlashtirish, turk tilini boshqa tillarning ta'siridan himoyalash kabi fikrlarni ilgari surdilar. Shu bois ham ularning she'rlari, asosan, xalqqa xitoban yozilgan bo'lib, *tenglik, haq, adolat, millat, Vatanni sevish, ozodlik, hurriyat* kabi mavzular qalamga olingan.

1876-yilda Usmoniylar taxtiga 2-Abdulhamid chiqdi. Uning davri tarixiy va adabiy manbalarda "Istibdod davri"⁸ deb nom oldi. 2-Abdulhamid hokimiyatni mustahkamlash maqsadida G'arb davlatlaridan kirib kelayotgan har qanday yangiliklarning salbiy oqibatlariga qat'iy kurash olib bordi va 1878-yil 13-fevralda "Majlisi Mebusan"⁹ (Meclis-i Mebusan)ni to'xtatib, matbuotga senzura o'rnatdi, hur fikrli insonlarni ta'qib ostiga oldi va ularga kuchli bosim o'tkazdi. Albatta, bu siyosat adabiyotda ham sezildi. Uning oqibatida adabiy jarayon ham murakkablashdi. Natijada, adabiyot ishtiyoqmandlariga Yevropaga imkoniyat ochildi. Tanzimot adabiyotining ilk bosqichidagi "san'at xalq uchun" shiori "san'at san'at uchun" shioriga aylandi. Tanzimot adabiyotining ilk shoirlari o'z nigohlarini jamiyatga qaratgan bo'lsalar, bu davr shoirlari shaxsga urg'u berdilar. K.Akyuzning qarashlari fikrimizni asoslaydi: "Tanzimotning birinchi davr shoirlari adabiyotni jamiyatning ma'naviy qarashini shakllantirish va tarbiyalash uchun bir vosita sifatida ko'rishgan bo'lsa, Mahmud Akromdan keyingi davr adabiyotida "san'at jamiyat uchun" shiori o'rniga "san'at uchun san'at" shiori e'tibor qozondi"¹⁰. Tanzimot adabiyotining ikkinchi davrida R.M.Akrom, A.H.Tarxon, S.P.Sezoyi, N.Nozim kabi mashhur shoirlar yetishib chiqdi. Ularning ijodida ijtimoiy mojarolar bir chetga surilib, insonlarning shaxsiy muammolariga e'tibor kuchaydi. She'r mavzulari esa o'lim, hayot, ishq-muhabbat va falsafiy qarashlardan iborat edi. Bu davrda barmoq vaznida ijod qilgan shoirlar ham kuzatildi, ammo aruzda yozilgan asarlar ko'pligi sabab aruz she'riyatda ustunligini saqlab qoldi.

XIX asr turk adabiy jarayonida keskin burulish yasagan uchinchi voqea 1896-yilda "Sarvat-i Funun" jurnalining adabiyot bo'limi muharrirligiga Tovfiq Fikratning kelishi edi, aynan shu sanadan Tanzimot adabiyoti o'z o'rnini "Adabiyot-i Jadida" davriga bo'shatib berdi. "Sarvat-i Funun" shoirlari she'riyatga ancha o'zgarishlar kiritishga erishdilar. Ular asta-sekin aruzdan barmoq vazniga o'tgan

⁷ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 76.

⁸ Uğurlu M. Müsebbib Üzerine (Safvet Nezihi'nin Kaleminden II. Abdülhamit Dönemi) // Rumeli'de Dil ve Edebiyat Araştırmaları Dergisi. – 2021, 3 (22) – S.338.

⁹ Deputatlar palatasi 1876-yil Konstitutsiyasi bilan tashkil etilgan va Usmoniylar imperiyasi xalqi vakillaridan tashkil topgan parlamentning quyi palatasi bo'lib, u ikki palatali Bosh assambleyaning quyi palatasi hamda Nodirlar palatasi (yuqori palata) bilan hamkorlikda ishlaydi. U ikki bosqichli, yashirin parlament tizimi bo'yicha xalq tomonidan saylanadigan deputatlardan iborat.

¹⁰ Akyüz K. Modern Türk Edebiyatının Ana Çizgileri: 1860-1923. – Ankara: Ankara Üniversitesi Basımevi, 1979. – S.26.

bo'lsalar-da, bu yo'nalishdagi shoirlar yana takror aruzga qaytishdi. Shoirlar ham devon adabiyoti, ham fransuz adabiyotidagi janrlarda ijod qildilar. Bu haqida K.Akyuz shunday yozadi: "Ularning ("Sarvat-i Funun" shoirlari – N.A.) ijodida ko'proq uch xil janr shakllari uchraydi:

1. Fransuz she'riyatidan o'zgarishsiz olingan janrlar (sonet).

2. Devon adabiyotidan olingan va bir oz o'zgartirilib, fransuz she'riyatining sarbast nazm shaklidan umuman farqlanmaydigan janrlar (sarbast mustazod).

3. Devon she'riyatida ham va fransuz she'riyatida ham mavjud bo'lmagan, shoirlarning o'zlari yaratgan va nazmda qofiya uchun keng qulaylik yaratgan janrlar"¹¹.

M.Kaplan kabi ba'zi olimlar bu davr adabiyotini xalqdan uzilgani, tilining murakkabligi, tushkunlik va G'arb, xususan fransuz adabiyotidan olingan yangilanishlarni oddiy taqliddan iborat deb bilsa, K.Akyuz singari bir guruh olimlar "Adabiyoti jadida" shoirlari olib kelgan uslub va janrlarni adabiyotning yutug'i deb baholaydilar. Bizningcha, ikkala fikrda ham haqiqatga yaqin jihatlar mavjud. Chunki, "Sarvat-i Funun" adabiyoti o'z oldiga qo'ygan maqsadga erisha oldi. Yangi madaniyatga yetaklovchi yangi adabiyotni vujudga keltirdi va bundan keyingi adabiy jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etdi. 1911-yildan oldingi davr "Milliy adabiyot"ning shakllanishi uchun turli omillarni yuzaga keltirgan davr hisoblanib, unda "Usmoniychilik", "Islomchilik", "G'arבחilik" va "Turkchilik" g'oyalari asosiy omil vazifasini bajardi. Mazkur faslda zamonaviy adabiyotda "milliy she'r"ning shakllanish bosqichi ikkita davrga bo'lib taqrib etildi. 1896-1901-yillarda "milliy she'r"ning vujudga kelish omillari kuzatilgan bo'lsa, 1908-1911-yillar oralig'idagi davr "milliy she'r"ning shakllanish jarayoni hisoblanadi.

Mazkur bobning ikkinchi fasli "*Milliy adabiyot davrida yangi she'riyatning takomillashuv bosqichlari*" deb nomlanadi. Bu davr turk adabiyotida tilni soddalashtirish, xalq og'zaki ijodi namunalari va milliy mavzularga diqqat qaratilgani bilan tavsiflanadi. Milliy adabiyotning boshlanish nuqtasi 1911-yilda Umar Sayfiddinning "Yosh qalamkashlar" ("Genç Kalemler") jurnalida chop etilgan "Yangi til" ("Yeni Lisan") maqolasi bilan belgilanadi. Maqolada yangi adabiy harakatning asosiy maqsadi, turk tilini sodda va tushunarli holga keltirish hamda keng omma qalbiga yetib bora oladigan milliy adabiyotni yaratish edi. Shuning uchun ham davrning ziyolilari asarlarning milliy tilda yozilishini, xalq tiliga yaqin bo'lishi kerakligini targ'ib qilishdi. Bu yo'lda ijod qilgan dastlabki shoirlardan biri Mehmed Emin Yurdaquldir. U ilk she'rlaridanoq turk tiliga alohida e'tibor qaratib, sof turkcha so'zlar asosida she'rlar yoza oldi:

*Bir yıl var ki dirlik yüzü görmemekte zavallı,
Bir yıl var ki bir dul gibi yürek yanık, göz yaşlı;
Bir yıl var ki İshak gibi ah etmede her gece.
Bir yıl var ki ırgat gibi bayırların sırtında.
Bir yıl var ki hayvan gibi yumruk, sopa altında.
Şimdi ise kovulmaklık isteniyor bu evcel...¹²
(Bir yıldan beri baxt yuzini ko'rmagan bechora*

¹¹ Akyüz K. Modern Türk Edebiyatının Ana Çizgileri: 1860-1923. – Ankara: Ankara Üniversitesi Basımevi, 1979. – S.77.

¹² Yurdakul M.E. Türk sazı. Zavallılar. – İstanbul: Atlas kitabevi, 1979. – S. 36.

Bir yildan beri tul xotin kabi bag'ri qon, ko'zida yosh
Bir yildan beri Is'hoq kabi oh tortadi har tun
Bir yildan beri mardikor kabi tepaliklar ustida
Bir yildan beri hayvon kabi tepki to'qmoq ostida
Endi esa quvg'inlikni xohlar bu qo'rqoq...)

Sof turkcha so'zlardan foydalanib ijod qilgan yana bir shoir Ziygo Go'kalpdir. U ham xuddi Yurdaqul singari she'rlarida milliylik va yangilikni xalq tarixidan hamda og'zaki ijodidan qidirdi. Bundan maqsad xalq ongida o'z tiliga, tarixi va madaniyatiga hurmat, vatanga muhabbat, urf-odat, qadriyatlariga sadoqat tuyg'usini uyg'otish, milliylikni xalq tomirida oqayotgan qonga singdirish hamda bu orqali milliy ongni shakllantirishdan iborat edi. Keyinchalik, U.Sayfiddin, A.J.Yo'ntem, I.Olavuddin, X.F.O'zansoy, E.B.Ko'ryurak, O'.S.O'rxon, Y.Z.O'rtach, F.N.Chamlibel singari shoirlar ijodida ham milliy tilga xos xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin. Demak, shoirlarning Milliy adabiyot davrining tili va adabiyotiga qo'shgan hissasi yozma va og'zaki tilni bir-biriga yaqinlashtirish bo'lib, ular bunga qisqa vaqt ichida erisha oldi.

Milliy adabiyot davrida she'riyatning yana bir muhim xususiyati shundaki, turkiy xalqlarning qadimiy, o'ziga xos she'riy tizimi hisoblangan barmoq vaznining aruz vaznidan ustunligi hisoblangan. Buning sababini U.S.Kojahan o'g'li "Birinchidan, 1911-yildan "milliylik" jarayonlarining kuchayishi, ikkinchidan, tilda soddalashish boshlangani sabab turk tilining aruzga moslashish imkoniyatining kamayishi, uchinchidan, turk she'riyati barmoq vaznidan keyin ham sarbast vaznga qarab yo'l olishi"¹³ – deb asoslaydi.

Bizning fikrimizcha, bu sabablarning uchinchisi munozarali ko'rinadi. Chunki Sarvat-i Funun davrining ayrim shoirlari sarbast vaznda ijod qilgan bo'lsalar-da, ko'pchilik tomonidan keng qabul qilinmagan. Bu vazn keyinchalik, Milliy adabiyot davridan keyin Jumhuriyat adabiyotida o'z o'rnini topgan. Ya'ni, Milliy adabiyot davrida barmoq vazni o'z o'rnini to'liq egallab olgan bo'lib, sarbast vaznga zamin hozirlagan xolos. Barmoq vaznining keng ommalashishida beshta shoirning xizmati beqiyos. Ular – X.F.O'zansoy, E.B.Ko'ryurak, O'.S.O'rxon, Y.Z.O'rtach va F.N.Chamlibeldir. Bu shoirlar adabiy guruh ham tashkil etdilar va "Hijoning besh shoiri" ("Hecenin Beş Şairi") nomi bilan adabiyot tarixida yorqin iz qoldirdilar. Ularga birdek ta'sir ko'rsatgan va aruzdan voz kechib barmoq vaznda she'r yozishga undagan shoir Ziygo Go'kalpdir.

Milliy adabiyotda asosan til va vaznni milliylashtirish, mavzularni xalqchillashtirish borasida bir qator adabiy jarayonlar yuzaga keldi. Bu davr shoirlarining ijodini uch guruhga ajratish maqsadga muvofiq. Birinchi guruh shoirlari "milliy she'r" deganda turkiy qavmlarning islomdan oldingi va islomning ilk davrlaridagi milliy afsona, doston, mani, turku kabi she'riy janrlarni nazarda tutishadi. Bu guruhga M.E.Yurdaqul, Z.Go'kalp va M.Nermi singari turkiygo'y shoirlar kiradi.

Ikkinchi guruh shoirlari esa milliy she'rni Usmoniylar davlatining yuksalish davriga bog'laydilar. XVI-XVII asr shoirlarining izidan borishni va she'rlarida milliylik unsurlarini izlashga tushishadi. Bunday shoirlar sirasiga Y.Kamol, E.Behich

¹³ Kocahanoğlu O.S. Millî Edebiyat Hareketi ve Beş Hececiler. – İstanbul: Toker Yayınları, 1987. – S. 56.

ijodi ham kiradi. F.Ko‘prulu “Milliy adabiyotning ilk yo‘lboshchilari”¹⁴ asarida ham aynan XVI-XVII asr devon adabiyotida “Turk-i basit” yo‘nalishida ijod qilgan shoirlarni hamda Edirnali Nazmiyning devonini tadqiq qilgan va milliy adabiyot, milliy she‘r aynan shu davrda paydo bo‘lgan, degan nazariyani ilgari surgan.

Uchinchi guruh shoirlari esa milliy she‘rni aslida xalq she‘riyatida, folklor mahsulida mujassamlashgan deb hisoblashdi va xalq og‘zaki ijodidagi nazm turlarini Milliy adabiyotda ham sinab ko‘rishdi. Bunday shoirlar sirasiga F.Nafiz, O‘.Sayfi, Y.Ziyo kabilar kiradi. Turk olimi K.Akyuzning qarashlari ham fikrimizni dalillaydi: “Milliy adabiyotga yon bosgan ijodkorlarning she‘r haqidagi tushunchalarida bir xillik kuzatilmaydi. Ba‘zi shoirlar Milliy adabiyotni “Eski turkiy tarixga, afsona va an‘analarga bog‘lanishini” ta‘kidlasa (M.Emin, Z.Go‘kalp, M.Nermi), ba‘zilari “Usmoniylar saltanatining porloq davrlarini jonlantirishga” urg‘u berishdi (Y.Kamol, E.Behich), ba‘zilari esa milliylashishni “xalq she‘riyatiga qaytish” deb hisoblab, xalq she‘rlaridan ilhomlandi (R.Tovfiq, F.Nafiz, O‘.Seyfi, Y.Ziyo)¹⁵.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Ziyo Go‘kalp va Yahyo Kamol ijodida “milliy she‘r” ga xos xususiyatlarning badiiy talqini**” deb nomlanib, birinchi faslda “*Ziyo Go‘kalp she‘rlarida milliy uyg‘onish, ma‘rifat va hurriyat masalalarining namoyon bo‘lishi*” haqida fikr yuritiladi.

Tarixdan ma‘lumki, XIX asr oxiri - XX asrning birinchi choragida Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahvol ancha qoloq bo‘lgan. Bu davrda, ayniqsa, XX asr boshlarida bo‘lib o‘tgan birinchi jahon urushida Turkiyaning mag‘lublar qatoridan o‘rin egallashi iqtisodiy-siyosiy ahvolini juda og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatdagi Sulton tuzumi asoratlaridan-da og‘ir vaziyatni yuzaga keltirdi. Z.Go‘kalp mana shunday og‘ir va tahlikali jamiyatda o‘sib-ulg‘aydi, bu voqea-hodisalar esa uning dunyoqarashiga ta‘sir etmasdan qolmasdi, albatta. U jamiyatdagi o‘rta va quyi tabaqa vakillarining ahvoliga achindi va jamiyat hayotini o‘zgartirishga harakat qildi.

Shoir qisqa umr ko‘rdi, ammo milliy adabiyotning ravnaqi yo‘lidagi xizmatlari uning nomini abadiylashtirdi. Z.Go‘kalp U.Sayfiddin va A.Jonib bilan birga 1911-yilda “Yosh qalamkashlar” (“Genç Kalemler”) jurnaliga asos soldi va “Yangi til” (“Yeni Lisan”) harakatining yo‘lboshchi ma‘rifatparvarlaridan biri sifatida tarixda iz qoldirdi. Ayniqsa, shoirning “Turon” (“Turan”) she‘ri yangi davrning vatanparvarlik ruhiga yo‘g‘rilgan milliy she‘rlaridan biri bo‘lib, adabiyot tarixida she‘riyat taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu she‘rni turk olimi R.Korkmaz milliy she‘rga qo‘yilgan tamaltoshi deb baholadi: “Ziyo Go‘kalp Turkiya mustaqilligining dastlabki yillarida nashr qilingan “Turkchilikning asoslari” asari bilan yangi boshlangan davrni shakllantirgan eng yirik ma‘rifatparvarlardan biri edi. U ham bir qator turk ziyolilari kabi badiiy va ilmiy ijodga usmonli millatchisi sifatida kirib kelgan bo‘lib, 1911-yilda “Yosh qalamkashlar” jurnalida chop etilgan “Turon” she‘ri bilan turkchilik harakatining g‘oyaviy-nazariy poydevorini yaratishda muhim bosqichni boshlab berdi. Ziyo Go‘kalp uchun adabiyot, xususan, she‘riyat fikrlarni tilda bayon

¹⁴ Köprülü F. Millî Edebiyat Cereyanının İlk Mübessirleri. Edebiyat Araştırmaları. – Ankara: TTK Yayınları, 1999. – S. 283.

¹⁵ Akyüz K. Modern Türk Edebiyatının Ana Çizgileri: 1860-1923. – Ankara Üniversitesi Basımevi, Ankara. 1979. – S. 164.

etishdagi bir yo‘l hisoblanadi. Bunday she’rlarga millatchilik nuqtayi nazaridan yondashib, bu tushunchaga mos til va shaklni birlashtirdi. Shu tariqa mazmun, til va shakl jihatdan yangilangan she’ri bilan milliy adabiyotning she’riyatdagi ilk vakillaridan biri bo‘ldi¹⁶”. She’r mazmuni turonliklarni birlashishga, jipslashishga chorlaydi. Millat qayg‘usida yongan shoir she’r tilini ham xalqqa yaqin sodda tilda yozadi. Shoir qalbining tub-tubiga singib ketgan ichki kechinmalar quyidagi parchada o‘z aksini topgan:

*Vatan ne Türkiyedir Türklere, ne Türkistan
Vatan, büyük ve müebbet bir ülkedir: Turan¹⁷.
(Turklarga Vatan na Turkiya erur, na Turkiston,
Vatan – buyuk va umrboqiy bir o‘lka, ya’ni Turon!)*

Shoir shuuridagi Turon o‘lkasi turkiy xalqlarning yagona vatani bo‘lib, she’rda ularni birdamlikka chorlaydi. Uning bunday qarashlari ko‘pgina she’rlarida batafsil yoritildi. Qator tillarga tarjima qilingan, barchamizga tanish, mashhur “Vatan” she’ri fikrimizni yanada oydinlashtiradi:

*Bir ülke ki toprağında başka ilin gözü yok,
Her ferdinde mefkûre bir, lisan, adet, din birdir...
Mebusânı temiz, orda “Boşo”ların sözü yok...
Hududunda evlatları seve seve can verir!
Ey Türkoğlu, işte senin orasıdır vatanın¹⁸!
(Bir o‘lkaki, tuprog‘ida boshqa elning ko‘zi yo‘q,
Har insonda mafkura bir, til-u odat, din birdir.
Xalq noibi pokdil, unda amaldorlar so‘zi yo‘q,
Tuprog‘ida avlodlari behalovat ko‘z yumar.
Ey turk o‘g‘lon, mana sening jannatmakon vataning!)*

Tahlillardan ko‘rinadiki, shoir she’riyatida turkiy xalqlarning mavqeyini yanada yuksaltirish, uni hur-ozod ko‘rish va dunyoga tanitish haqidagi qarashlari yorqin namoyon bo‘ladi. Shoirning bu fikrlari bugunning ham dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Hozirda keng qamrovli sohalarda faoliyat yuritib kelayotgan Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (Türksoy, 1993), Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT, 2009) singari turkiy xalqlar jamiyati milliy shoir Z.Go‘kalpning bir asr oldingi eng katta orzusi va asosiy maqsadi bo‘lgan. She’rdagi “*Har insonda mafkura bir, til-u odat, din birdir*”, - misrasi aynan shu tashkilotlarning mazmun-mohiyatini aks ettirgan.

Z.Go‘kalpning lirik merosini tadqiq etganimizda uning aksariyat she’rlari barmoq vaznida yozilgan bo‘lib, unda xalq og‘zaki ijodi janrlarining ta’siri kuzatiladi. Barmoq vazni turkiy xalqlar og‘zaki ijodining qadimiy turi bo‘lib, u zamonaviy turk she’riyatining ham asosiy va yetakchi vaznlaridan biri hisoblangan. Shoir milliy shuurga yo‘g‘rilgan she’rlari bilan milliy she’r imkoniyatlarini yanada kengaytirishga hissa qo‘shdi. U tilda soflikni targ‘ib qilibgina qolmay, turkiy xalqlarning qadimiy she’rlari barmoq vaznida yozilganini ta’kidlab, uni milliy vazn deya, talqin qildi.

Shuningdek, Z.Go‘kalp she’riyatida didaktiklik tamoyili ham ustuvorlik kasb etdi. Uning “Din” (“Din”), “Din bilan ilm” (“Dinle İlim”), “Ahloq” (“Ahlak”), “Ayol”

¹⁶ Korkmaz R. Yeni Türk Edebiyatı (1839-2000). – Ankara: Grafiker Yayınları, 2015. – S. 219.

¹⁷ Akyüz K. Batı Tesirinde Türk Şiiri Antalojisi (1860-1923). – İstanbul: 1971. – S. 692.

¹⁸ Gökalp Z. Vatan / Yeni Hayat. Şiirler (Hazırlayan: Dr. Salim Çonoğlu). – İstanbul: Ötüken neşriyat, 2023. – S. 27.

(“Kadın”), “Kasb-hunarli ayol” (“Meslek Kadını”), “Oila” (“Aile”), “Dorilfunun” (“Darülfünun”), “Kulliyot” (“Külliyeh”) singari she’rlarida g‘oyaviy-ma’rifiy didaktika yetakchi xususiyat hisoblanadi. Shoir ijodining tamal unsurlaridan biri ta’lim-tarbiya masalasi she’riy janrlar vositasida ifoda etildi. Shoirning shunday asarlaridan biri “Dorilfunun” she’rida ilm-ma’rifatga yetaklovchi muallimning erkin ta’lim berishiga imkoniyat yaratish haqida bong urdi:

*Darülfünun emirlerle düzelmez,
Onu yapar ancak serbest bir ilim;
Bir mesleğe hariçten fer gelmez
Bırakınız, ilmi yapsın muallim!...¹⁹
(Dorilfunun buyruqlarla o‘zgarmas,
Uni qilar faqat erkin bir ilim;
Bitta kasbga tashqaridan kuch kelmas
Qoying endi, ilm qilsin muallim!...)*

Z.Go‘kalpning xotin-qizlar obrazini aks ettirgan “Qizil olma”dagi Oyxonim, “Anor donasi”dagi Gulsun malika, “Sharbatchi ona”dagi Oqgul, “Janob ilon”dagi Oysha Sulton, “Qo‘lsiz xonim”dagi Oyqiz, “Kichkina hamshira”dagi Aliyaxonim turk xalqining tasavvuridagi, yangi hayotning ideal qahramonlari hisoblanadi.

Bobning ikkinchi fasli “*Yahyo Kamol ijodiga G‘arb adabiyoti va mumtoz she’r an’analarining ta’siri*” deb nomlanib, faslda yirik shoir Y.Kamol ijodi haqida fikr yuritiladi. Y.Kamol Parij adabiy muhiti bilan yaqindan tanishdi va ularning ijodi orqali o‘z uslubini shakllantirishga intildi. Verlenning mumtoz adabiyoti namunalaridan ta’sirlangani shoirda ham katta qiziqish uyg‘otdi. Y.Kamol Sh.Bodlgerga taqlidan ham she’rlar yozgan. Hatto uning “Boshqa bir tepalikdan” (“Bir Başka Tepeden”) she’ridagi “*Sana dün bir tepeden baktım aziz İstanbul!*” misrasi Bodlarning “Xotima” (“Sonuç”) she’ridagi quyidagi misralarni eslatadi:

*Gönlüm rahat, çıktım dağın tepesine,
Hastane, hapishane, kerhane, araf, cehennem.
Kent görünüyor tüm genişliğince²⁰.
(Ko‘nglim tinch, chiqdim tog‘ning cho‘qqisiga,
Shifoxona, qamoqxona, fohishaxona, pokxona, jahannam.
Shahar ko‘rinmoqda to‘liqligicha.)*

Bodler mamlakatini yuqoridan kuzatish uchun tog‘ tepasiga chiqadi, u yerdan turib poytaxt shaharga, ya’ni Parijga munosabatini “*Sevaman seni, razil poytaxt*” (“*Seviyorum seni, rezil başkent!*”) deya aks-sado beradi. Y.Kamol ham bu she’r ta’sirida Istanbulni shoir ta’biri bilan aytganda, boshqa bir tepalikdan kuzatayotib shunday ta’riflaydi:

*Sana dün bir tepeden baktım aziz İstanbul!
Görmedim gezmediğim, sevmediğim hiç bir yer.
Ömrüm oldukça, gönül tahtıma keyfince kurul!*

¹⁹ Gökalp Z. Darülfünun / Yeni Hayat. Şiirler (Hazırlayan: Dr. Salim Çonoğlu). – İstanbul: Ötüken neşriyat, 2023. – S. 60.

²⁰ Baudelaire Ch. Paris sıkıntısı. Fransızca Aslından Çeviren: Tahsin Yücel. – İstanbul: Kültür Yayınları, (VI Basım), 2013. – S. 117.

*Sâde bir semtini sevmek bile bir ömre değer²¹.
(Kecha bir tepalikdan senga boqdim, aziz Istanbul!
Ko 'rmdim, men bormagan, men sevmagan biror bir yerni.
Men tirik ekanman, ko 'ngil taxtimda xohlagan cha qol!
Ko 'rimsiz bir shahringni sevmog ham bir umr qadrli.)*

Bodler vatanini razil, tuban shahar deya tasvirlasa, Y.Kamol Bodlerdan farqli o'laroq, mamlakatiga "aziz Istanbul!" deya hayqiradi.

Y.Kamol yuqorida kuzatganimizdek, bir muddat fransuz adabiyoti ta'sirida qoladi, keyinchalik Sharq mumtoz an'alariga qiziqishi tufayli S.Sheroziy, Sh.Yahyo, Nishotiy, Boqiy, Nafiy, A.Nodim kabi mumtoz shoirlarning asarlariga oshno bo'ladi. Ularning asarlari mazmun-mohiyatini to'liq anglash maqsadida fransuz sharqshunoslari bilan birgalikda arab va fors tillarini mukammal o'rgandi, mumtoz janrlarda she'rlar mashq qildi. Xususan, Y.Kamol A.Nodim "Devon" idagi g'azal, ruboiy, musammat, sharqiy va qit'a singari mumtoz janrlarga taqlidan she'rlar yozdi. Nodim ijodida ko'p tilga olingan Sadobod saylhogi Ibrohim Posho tomonidan bunyod etilgan bo'lib, bu saylgoh 1722-yil 31-iyulda 3-Ahmadning tashrifi bilan tantanali ochilgan. Bu saylgoh Nodimning "Berâ-yı Sitâyîş-i Sa'd-âbâd" nomli qasidasida shunday tasvirlanadi:

*Bak Sitanbulun şu Sa'd-âbâd-ı nev-bünyânına
Âdemîn cânlar katar âb u havâsı cânına²².
(Boq Istanbulning shu yangi Sadobod saylgohiga,
Odamatoning ruhiga jon bag'ishlar suv va havosi.)*

Y.Kamol bu saylgohni madaniyat markazi sifatida talqin qilib, qator she'rlarida tilga oldi. Shoir "1140-yil" ("Sene 1140") nomli musammatida bu saylgohni gul-u gulzor, oydin kechalardagi to'y-u tomoshalar maskani deya e'tirof etdi:

*Kasr-ı Sa'dâbâd gülzâr-ı hümayun-sâyına
Eyledim mehtâbı hem dâvet düğün âlayına²³.
(Sadobod qasrining, gulzor-i humoyuniga²⁴
Taklif qildim mohitobni ham to'y bazmiga.)*

Musammatning nomidagi 1140-hijriy yil bo'lib, u 1728-milodiy yil hisoblanadi. Tarixda bu yil Usmoniylar davlatining Eron bilan bo'lgan jangdagi zafari va ilk matbuotning boshlangan faoliyatiga to'g'ri keladi. Aslida shoir bu shakldagi she'rlarini yuqorida aytib o'tganimizdek, Verlen ijodidan ta'sirlanib yozdi. Y.Kamol uning "Les Fêtes Galantes"²⁵ nomli mashhur asarini o'qib, asardagi ko'rkam sahnalarni turk tilida yozsam, turk xalqining tarixini shu shaklda ifoda qilsam, degan xayolda yurgan.

U Istanbulga qaytgach, neoklassik shoir sifatida tanila boshlaydi. Mumtoz she'r an'analari va G'arb she'riyatining ta'siri natijasida shoir she'rlarida yangi atamani, ya'ni "derûnî ahenk" tushunchasini qo'llaydi. Bu atamaning izohini turk

²¹ Kemal Y. Aziz İstanbul.. – İstanbul: İstanbul Fetih Cemiyeti, 1974. – S. 7.

²² Nedîm Dîvânı. Hazırlayan Dr. Muhsin Macit.. – Ankara: Kültür Eserleri Dizisi-511, 2017. – S. 78.

²³ Kemal Y. Eski Şiirin Rüzgarıyla. – İstanbul: İstanbul Fetih Cemiyeti, 2022. – S. 55.

²⁴ "Gulzor-i Humoyun" - "Sultonga tegishli atirgul bog'i" ma'nosini anglatuvchi ibora.

²⁵ Asarning ma'nosi "Nazokatli bayramlar", "Nazokatli ziyofatlar" degan ma'noni bildiradi. Bu ibora XVIII asr fransuz madaniyatiga xos bo'lib, hashamatli va romantik ziyofatlar tasvirlangan san'at va adabiyot janriga ishora qiladi. Shuningdek, bu Pol Verlenning mashhur she'riy to'plamining nomi bo'lib, unda sevgi, tabiat va sog'inch mavzulari tasvirlangan.

adabiyotshunosi A.Akgul shunday talqin qiladi: “Yahyo Kamolning “derûnî ahenk” tushunchasini termin sifatida izohlashga qo‘l urilgan tadqiqotlarni tahlil etganda shoir “derûnî” va “ahenk” so‘zlariga uning lug‘aviy ma‘nosidan boshqa yana bitta vazifa yuklaganini ko‘rishimiz mumkin. (...), Yahyo Kamol “derûnî ahenk” tushunchasiga “sintagma”, “so‘z tanlash”, “shakl va mazmunning muvofiqligi” va “ritm” singari unsurlarning barchasini kiritgan. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, shoir biror bir she‘rda tahlil qilinishi kerak bo‘lgan “til”ning barcha ichki xususiyatlarini “derûnî ahenk” atamasi ostida birlashtirishga harakat qilgan”²⁶. Shoirning “Sassiz kema” (“Sessiz Gemi”) she‘rida ana shunday ichki ohangning yorqin namunasini kuzatamiz:

*Biçare gönüller! Ne giden son gemidir bu!
Hicranlı hayatın ne de son matemidir bu!
Dünyada sevilmiş ve seven nafile bekler;
Bilmez ki giden sevgililer dönmeyecekler.
Bir çok gidenin her biri memnun ki yerinden,
Bir çok seneler geçti; dönen yok seferinden²⁷.
(Bechora ko‘ngillar! Ketgan kemalarning oxiri emas.
Hijronli dunyoning ham oxirgi motami emas.
Bu dunyoda sevilgan-da, sevgan-da behuda kutar.
Bilmaydi, sevishganlar ortga qaytmaslar.
